

O'zbek Xalqining Moddiy Madaniyati Tarixi (Uy Qurilishi, Kiyim-Kechaklari Va Zeb-Ziynat Buyumlari)

*Bozorov Shuxrat Azamiddinovich*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining moddiy madaniyati tarixidagi uy-joy, kiyinish madaniyati va zeb-ziynatlar haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Kalit so'zlar: moddiy va madaniy boyliklar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyimlar.

KIRISH (Introduction). Ozbekiston Respublikasining mustaqil bo'lishi va madaniyat sohasidagi o'zgarishlar tarixan zaruriy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson hayotiy faoliyatining, uning tevarak-atrofdagi olamni bilish shakllarining madaniyatda aks etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat hayotining madaniy-tarixiy rivodlanishi asosida moddiy buyumlar va ma'naviy omillar – bilim, tajriba, taraqqiyot natijasida insoniyat madaniy taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga chiqib bormoqda. Yo'nilgan tayoq va toshdan yasalgan quroldan tortib madaniy boyliklar va ilmiy bilimlarga bo'lgan madaniyat yodgorliklari muhim ahamiyatga ega.

Moddiy madaniy boyliklar vaqt o'tishi bilan eskiradi, vayron bo'ladi, buziladi, xizmat vazifasini o'tab, nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ma'naviy madaniy boyliklar esa asrlar o'tsa-da, keyingi avlodlar ongi va ko'z o'ngida milliy qadriyatlar shaklida saqlanib qoladi. Ulardagi asosiy mazmun, g'oyalar, tamoyillar. me'yorlar avlodlardan avlodlarga o'tadi, abadiy yashab qoladi. Ular har bir tarixiy-madaniy jarayonda ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlar o'rtasidagi ikkinchi farqli jihat insonning moddiy ehtiyojlari — oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalarga bo'lgan ehtiyojlari ma'lum darajada cheklangan boladi. Ma'naviy ehtiyojlari, ya'ni bilim olish, san'at asarlarini tomosha qilish yoki tinglashi, fan sohalarini o'rganishi, kishilar bilan muloqotda bo'lishi, urf-odatlar, marosimlarni tashkil etishi yoki undagi ishtiroki hamda aqliy faoliyatning boshqa turlariga ehtiyoji doimo va to'xtovsiz ravishda oshib boradi [1:76].

Uchinchidan, moddiy va ma'naviy madaniyat o'rtasidagi farqlardan yana biri shuki, moddiy qadriyatlar (moddiy madaniyat) ko'proq iste'molga mo'ljallangan bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar (ma'naviy madaniyat) inson shaxsini shakllantirishga, uni kamol toptirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, moddiy madaniyatning turli elementlari aniq ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, mehnat qurollari faqat ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga, oziq-ovqat faqat tirik organizmning moddalar almashinuvi ehtiyojini qondirishga, kiyim -kechaklar tabiat hodisalari ta'siridan saqlanishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ma'naviy madaniyat ijtimoiy ong shakllarining u yoki bu yig'indisi emas, balki muayyan g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar, tushunchalar va boshqalarni vujudga keltiruvchi ijodiy faoliyatdir [2:41].

Hozirgi zamon madaniyatshunoslaridan V.M.Mejuyev, S.N .Artanovskiy, A .I.Arnoldov, E.A.Baller, E.V.Sokolov, M.Xayrullayev, S.Shermuhamedov, U.Qoraboyev, A.Erkayev, K.Xonnazarov, A.Eshonqulov, M .Abdullayev va boshqalar ko'rsatib o'tishganidek, ma'naviy madaniyat bu — ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, unga mos bo'lgan munosabatlarni birlashtiruvchi kishilar hayotiy faoliyatining ijodiy mazmunidir.

¹ Shahrizabz Davlat Pedagogika Instituti 1-Kurs Magistranti



Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Turar joylar. O‘zbekistonning an’anaviy turar joylari qadimdan o‘ziga xos bo‘lib, ular yashagan mintaqaning tabiiy – geografiy sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan. Turar joylar barpo etishda qurilish konstruksiyasi va uslubi, rejasi va bezaklari bilan Farg‘ona, Buxoro, Xiva, Shahrisabz me‘morlik yo‘nalishlari mahmur bo‘lib kelgan. Uy – joy qurilishida O‘zbekistonda qadimiy uylar, odatda, ko‘cha va qo‘shni tomon devor bilan o‘ralgan hovlilardan iborat bo‘lgan [3:324]. Barcha turar joy va xo‘jalik xonalarining derazalari ichkari tomonga qaratilgan. Hovli ikki qismga – bolalar va ayollar uchun ichka hovli hamda nomahram erkaklar va mehmonlar uchun mehmonxona tarzida hashamatli xonalardan iborat tashqari hovliga bo‘lingan. Hunarmandlarning uylarida do‘kon va shogirdlar yashaydigan xonalar ham tashqarida joylashgan. Eng ko‘p tarqalgan 2 xonali uy variantlaridan biri sifatida dahliz va katta uydan iborat bo‘lgan uylarini ko‘rsatish mumkin. Bunday uy – joylar, odatda, oldi ayvonli va ayvonsiz qilib qurilgan. Aholi o‘rtasida an’anaviy paxsa va sinchli uylar bilan birga g‘ishtli uylar va ularni naqshinkor ganchli bezaklar bilan qurish ham mavjud edi. O‘zbekistonda doimiy uy – joylar X asrga qadar, asosan, tosh, paxsa yoki xom g‘ishtdan qurilgan. Loy asosiy qurilish materiali hisoblangan. Pishgan g‘isht qadimdan qo‘llanib kelinsada, keng miqyosda undan uy – joy qurish IX asrdan boshlandi. Buxoro va xivada hovli eshiklarga jez yoki temirdan yasalgan bolg‘a yoki halqasimon boldoq osilgan.

Eski tipdagi uylarning xonalari va derazalari ayvonga qaratilgan. Deraza yoki eshikning yuqori qismiga yorug‘lik tushadigan tuynik qo‘yilgan va unga yog‘och yoki ganchdan yasalgan panjara o‘rnatilgan. Uyda kiradigan joyda eshik oldida to‘g‘ri burchakli peshtoq (poygak) bo‘lib, unga poyabzal yechib qo‘yilgan. Eshik oldidagi burchakda suv quyiladigan (oqizadigan) maxsus joy (obrez, adan, tashnob) joylashgan bo‘lib, unga Buxoro va Samarqandda marmar tosh, Farg‘ona vodiysida va Toshkentda pishiq g‘isht, Xivada maxsus sopol terilgan.

Odatda, uylarning tahri oila a‘zolarining soniga qarab bir necha uy (xona), dahliz va ayvondan iborat bo‘lgan. Hovlida esa xo‘jalik uchun omborxonada, hojatxonada va molxonada bo‘lgan [4:356]. Shaharlarda yoki aholi zich joylashgan qishloqlarda mehmonxona, odatda, 2 – qavatda – bolxonada joylashgan. Ayniqsa, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Urgut shaharlarida juda shinam mehmonxonalar qurilgan. Bu kabi mehmonxonalarda to‘y hashamlarda, motam marosimlarida keng foydalanilgan. Bundan tashqari, qish paytlari mehmonxonalarda mahalla erkaklari to‘planishib gap – gashtaklar o‘tkazganlar. Hozirgi kunga kelib zamonaviy uylarning qurilishi ancha takomillashgan bo‘lib, uylarning qurilishidagi milliy an‘analarga zamonaviy ko‘rinishlar bilan uyg‘unlashgan. Bugungi uylarning muayyan reja asosida turli qulayliklar bilan qurilmoqda.

Asrlar mobaynida o‘troq hayot kechirish natijasida o‘zbeklarning turli urug‘ – qabilalari orasida o‘ziga xos milliy an‘analarga mos uy – joy qurish tartibi qaror topgan. Shuning uchun ham elimizning turli joylarida bir – biridan ancha farq qiladigan o‘z uy – joy uslubi hali – hanuzgacha hukm surib kelmoqda. Bu yerda Farg‘ona, Buxoro, Xeva va Shahrisabz uslublarini alohida ko‘rsatib o‘tmoq kerak. Har biri shu vodiy yoki havza tabiiy shart – sharoitlariga qarab tashkil topgan. Tez – tez yer qimirlab zilzila bo‘lib turadigan Farg‘ona vodiysida qo‘sh sinch, Xivada esa yakka sinch uy qurilgan. Yog‘in – sochin ko‘p bo‘ladigan Xivada yengilroq qurilgan

O‘zbekistonning turli tabiiy-geografik sharoiti bu yerda har xil xalq me‘morchilik maktablarini yuzaga keltirgan edi. hozirgacha saqlanib kelgan, asosan qurilish konstruksiyasi va uslubiy, tanirovkasi va bezaklari bilan ajralib turgan, mustaqil va o‘ziga xos Farg‘ona, Buxoro, Xiva va Shahrisabz me‘morchiligi mashhur bo‘lib kelgan. Masalan, Farg‘ona vodiysida siyosiylik zona bo‘lganligi asosan ikki qator qo‘sh sinch uylar qurish, zilzila kam bo‘ladigan Xivada esa qator sinchdan imorat solish odat bo‘lgan. Yoki Farg‘ona vodiysida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lganligi uchun tom gurishda lombozning qalinligi 40 sm gacha kelsa, yog‘ingarchilik kam bo‘ladigan Xorazm vohasida lomboz 10-15 sm dan oshmagan.

Ko‘pchilik uy - joylarning planirovkasi oila a‘zolarining soniga qarab bir necha uy (xona), dahliz va ayvondan iborat bo‘lgan, xo‘jalik xonalari, oshxonada, hojatxonada va molxonada hovlida qurilgan. Zich aholi yashaydigan shaharlarda mehmonxona ikkinchi qavatda bolaxonada joylashgan. Masalan, Buxoroda ikki yoki uch qavatli uylar qurish odat bo‘lgan. Toshkent va Buxoroda ayrim hovlilarning



80-90%, ba`zan hatto 100 foizi qurilish bilan band bo`lgan har bir metr joydan unumli foydalangan [5:183].

Choynak - piyola va boshqa: chinni, mis va billur idishlar maxsus taxmon yoki tokcha, reza tokcha, kosamon va hokazolar did bilan joylashtirilgan. Pastki katta tokchalarda nafis sandiq va qutichalar, idish-tovoqlar, patnis, qumg`on tuncha va samovar qo`yilgan. Ayrim badavlat uylarda tokcha va taxmonlar nozik o`yma rangli naqshlar bilan bezatilgan ko`p uylarda kiyim - kechaklar va boshqa buyumlar devorlarga qadalgan qoziqchaga yoki maxsus tortilgan ipga osib qo`yilgan hozirgi davrda an`anaviy jihozlanish zamonaviy mebel (garniturlar)ga o`tkazilib, ular ko`p qavatli va alohida uylarda hamda yuksak did bilan joylashtirilgan stenka va tokchalarga qo`yiladigan buyumlarning turlari nihoyatda boy va rang barang . Ayniqsa hozirgi kelin - kuyovlar uyi chet el import garniturlari, xilma-xil idishlar va uy-ro`zg`or buyumlari qimmat baho gilam choyshab va yopinchoqlar noyob rasmlar va xaykalchalar bilan jihozlangan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Qadimgi davrlarda bosh kiyimga qarab o`zbeklarning etnik va lokal guruhlar bilan farq qilingan. Erkaklar boshiga asosan turli xildagi do`ppi (do`ppi, taqyo) kiygan, ayollar esa ko`pincha rang -barang ro`mol yopingan. Do`ppining dastavval tagini va gardishi (kizagi) ni ayrim holda tikib kashtalaganlar va mayda kavalab qo`shib tikkanlar. Odatda, do`ppiga nozik gul qadab tikiladi, ayrim ayollarning do`ppisiga mayda munchoq, marjonlar. Xorazmliklarda jiyak va popuk taqiladi. Ilgari konus shaklidagi do`ppilar Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda tarqalgan, endi esa Shahrisabzda saqlangan [6:214].

Biroz yapaloq yassi shaklda ichiga o`rab qog`oz bilan mayda qaviq qilingan do`ppilar asosan Farg`ona vodiysida ma`lum. Ayniqsa «Bodom» yoki «qalampir» chaqish oq ipak ip bilan tagi qora matolarga kashtalangan Chust do`ppisi nafaqat vodiya, balki Chustdan tashqarida ham mashhur. Tagi kashta qilinib, rang -barang gul shaklidagi Xo`jand-o`rtatepa do`ppilari butun o`zbekitonga tarqalgan.

Erkaklar kiyishi uchun qalpoq-kulox 4 bo`lak uch burchak matodan gardishsiz tikilgan. Konus shaklidagi baland kuloxni ilgari qalandorlar kiygan, tuxum shaklidagi chakkasi bir oz yumaloq kuloxni Buxoroda kishilar kiyganlar. Bunday bosh kiyim o`rta asrlar minatyuralarida ko`p uchraydi. Asli kuloxni ruhoniylar va dindor kishilar ko`proq kiyganlar. Kuloxga o`xshash teridan tikilgan qishqi telpak Samarqand va Buxoroda uchraydi. Farg`ona vodiysida va Toshkent viloyatida telpak duxoba yoki movutdan tikilgan tepasi tulki yoki safsar mo`ynasi, qo`y terisidan tikilgan. Telpak bichimida kiygizdan tikilgan qo`lpoqni asosan dashtda yashovchi aholi kiygan.

Qo`lqopning 2 chetida kesigi (kiyik joyi) va soyabon uchun keng himoyasi bo`lgan. Odatda qalpoq oq kiygizdan, himoyasining chekkasi esa qora chitdan tikilgan.

Xorazm o`zbeklarining ayollari ipakdan tikilgan doirasimon shakldagi gulli taxyo (do`ppi) ga ipdan yoki qush patidan popuk o`rnatganlar, tangalar osganlar. Taxyo ustidan odatda ro`mol yopilgan. Bu yerda ro`mol turlari ko`p bo`lgan: mahalliy ustalar to`qilgan oq taqana va ipak ro`mol (chitkor gul bosgan, jundan to`qilgan naqshli sergul ro`mol, chetdan keltirilgan Boku ro`moli, Parang Fransuz yoki Ovro`pa ro`moli va hokazolar).

Erkaklarning qadimdan kiyadigan bosh kiyimi chugirma bir necha turda qo`y terisidan tikilgan, qorako`l terisidan tikilgan sherozi popok va kulochin paydo bo`lgan.

Ayollarning qadimiy an`anaviy bosh kiyimi gardishi baland yumshoq kulta (kiygich) hozir butunlay kiyilmaydi. Kultaning eski turida tepasi ochiq bo`lib, soch o`rami chiqarilgan, yoki qizlarning kiygichida tepasi yopiq bo`lgan. Salla o`rash o`zbek ayollarining qadimiy bosh kiyimi hisoblangan. XIX a`nd i`o`d`g`a k`e`e`a` N`a`i`d`q`and, Toshkent va Andijonda bu odat qolib ketgan. hozirgacha ba`zi o`zbeklarda salla o`ragan ayollarni qisman uchratish mumkin. Ayol sallasi o`zaro bir oz farq qilingan. Ko`pchilik ayollar uni o`ziga xos shakldagi maxsus bosh kiyim-lachak ustidan kiyilgan. Samarqandliklar lachakni uzunroq qilib o`rab ko`krak va orqa tomonini bekitib turgan. Toshkentliklarda ham xuddi shu bichimda lachak kiyilgan. Samarqandliklar lachakni uzunroq matodan bir oz boshqacha shaklda tikkanlar. Janubiy Xorazm o`zbeklari salla shaklida aylantirib, bir uchini



ko`kragiga tashlaganlar. Odatda ilgari uydan tashqariga chiqilsa, ayollar salla ustidan mirsak yoki uchburchak ro`mol shaklida oq yoki qizil ip matodan tikilgan charchi yopinib chiqqanlar [6:244].

Ayollarning ko`pchiligi keyinchalik an`anaviy bosh kiyimidan voz kechib, har xil rangdagi va turli materialdan to`qilgan ro`mol yopina boshladilar. Ro`mol o`rash yoki yopinish ham turlicha, qulayligiga qarab o`rganlar. Fasлга qarab katta rangli ko`p gulli ipak jun yoki to`qilgan tivit ro`mol o`rash odatda hozirgacha saqlangan. hozirgi davrdagi qizlar zamonaviy turmaklashga o`tganlar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, jamiyatning moddiy madaniyati, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalari va ularning natijalarini o`z ichiga oladi. Moddiy madaniyat kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirish, yuqori darajadagi farovonlikni ta`minlaydigan shart-sharoitlarini yaratish jarayonidir [6:98].

Shuni ham aytish joizki, jahonning yirik muzeylarida saqlanayotgan O'zbekistonga oid ashyolarni o'rganish, ajdodlar moddiy-ma'naviy merosi va ularning asosiy xususiyatlarini tadqiq etish tarix, muzeyshunoslik va san'atshunoslik ilmini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish, kelajakda sohaga oid tadqiqotlarni bajarishda asos vazifasini o'taydi. Muzey faoliyati muzey fondlari asosida amalga oshiriladi. Muzey kolleksiyalarini to'plash – ilmiy izlanish samarasidir. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq holda komplektlashning zamonaviy usuli – informatsion komplektlash vujudga kelganligi natijasida xorijiy muzeylar, kutubxonalar internet saytlaridan foydalanish orqali, O'zbekistonda xorijiy muzeylarning tajribalaridan foydalangan holda muzey kommunikatsiyasini rivojlantirishda katta samara beradi.

Bunda dunyo bo'ylab tarqab ketgan O'zbekistonga oid merosni o'rganishda jahon muzeylarining internet saytlariga qo'yilgan ma'lumotlar, fotosuratlar mavzuga oid ma'lumotlarni to'plash, ya'ni zamonaviy informatsion komplektlashning muhim tamoyili bo'lib xizmat qiladi. Bilim olishning ushbu zamonaviy usullari videomuzeylar, virtual sayohatlar va elektron kataloglar orqali amalga oshiriladi. Albatta, bu borada biz, soha vakillari muzeyshunoslik ilmining Renessans davrini yaratishda hozir turishimiz, badiiy ta'lim yo'nalishida esa amaliyot bilan integratsion jarayonda bo'lishimiz darkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov I. O`zbek xalq etnografiyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1994. – 320 b.
2. Ostraulov N.A. Sarti. – T.: 1908.
3. Guboglo, M.N. Ethnology and the present. On the outcomes of II Russian congress of ethnographers and anthropologists (Ufa, 1-5 June 1997)] (1998) Etnograficheskoe Obozrenie, (3), pp. 129-147.
4. O`zbek millik ensiklopediyasi. – T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 23469 b.
5. Rustamov M. O`zbek xalq etnografiyasi. I-IV jild. – Toshkent: 1991.
6. Xo`jayev T. Qadimgi Toshkent aholisi. – T.: 1993

